

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10858879>**

## **MIZROBLI CHOLG'ULARDA TREMOLONI IJRO QILISH USULINING MOHIYATI VA ULARNI AMALDA O'ZLASHTIRISH USLUBI**

**Badelov Maxamatjon Umarovich**

Guliston davlat universiteti

“An’anaviy xonandalik va cholg‘u ijrochiligi kafedrasi”

Musiqa asarlarida muallifning fikrlarini to‘laqonli badiiy ifodalash uchun ijro texnikasining usullarini kengroq o‘zlashtirish zarur bo‘ldi. Mavjud ijro usullaridan foydalangan holda, cholg‘u ijrochilari yangilarini ishlab chiqdilar va joriy qildilar, shuningdek, boshqa cholg‘u asboblaridan chalishning ma’lum usullarini o‘zlashtirdilar. O‘zlashtirib olingan usullardan, birinchi navbatda, mandolin va domradan kelib chiqqan tremoloni aytib o‘tishimiz mumkin. Tremolo usuli mizrobli va chertma cholg‘u asboblarida juda keng tarqalgan va ijro amaliyotida katta badiiy ahamiyatga ega bo‘lib kelgan.

Maqolaning maqsadi - o‘zbek xalq cholg‘u asboblarida tremolo usulining mohiyatini ochib berish, uni musiqa ta’limi muassasalarining maxsus sinflari va havaskor musiqa jamoalarida qo‘llash va amaliy rivojlanishiga uslublarini ochib berishdan iborat.

Xalq amaliy ijrochiligining mizrobli cholg‘ulari (Qashg‘ar va afg‘on ruboblari, tanbur) da bu usul zamonaviy tushuncha va ijroda yo‘q edi. Biroq, uning shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar ("rez" usuli - o‘ziga xos ritmik tremolo) mavjud edi. Bundan tashqari, xalq xonandalari, puflama va torli-kamonli cholg‘u ijrochilari cho‘zilib turuvchi tovushlardan keng foydalanganlar. Bu, shubhasiz, o‘zbek xalq mizrobli cholg‘ularida tremoloni ijro qilish usulining zamonaviy ijro amaliyotiga organik tarzda kirib borishi uchun qulay asos bo‘lib, ulardagi ijroni yanada boyitganligi

aniq. Bundagi asosiy vazifa, kelajakda foydalaniladigan rang-barang repertuar ahamiyatli bo‘ldi.

Tremolo usulining mohiyati va uning mizroblari cholg‘u asboblari uchun badiiy ahamiyati qanday? Musiqiy akustika kursidan ma’lumki: cho‘zilgan torni tebranish holatiga keltirish uchun urish, yoki chertish orqali ma’lum miqdorda quvvat sarflash kerak. Bu quvvat torning tebranish holatini saqlab, bir impulsda yoki uzlusiz, uzoq vaqt davomida sarflanishi mumkin. Agar cho‘zilgan tor muvozanat holatidan chiqarilsa va qo‘yib yuborilsa, u tebranish harakatlarini amalga oshira boshlaydi, unga berilgan quvvat esa tarqalishi tufayli asta-sekin so‘nib boradi. Binobarin, torni mizrob (mediator) bilan urib, biz tebranish harakatlarini keltirib chiqaramiz va paydo bo‘lgan paytda baland bo‘lgan va asta-sekin so‘nib ketadigan tovushni olamiz. Bu esa mizroblari, urma-torli va tirnama-chertma torli cholg‘ularga xos xususiyatdir.

Tebranayotgan jismga quvvat uzlusiz va uzoq vaqt davomida, har bir tebranish vaqtida kam-kamdan ta’sir o‘tkazib, ularning tabiiy susayishi natijasida yuzaga keladigan quvvat yo‘qotishlarini to‘ldirib turilsa, bu boshqacha ko‘rinish oladi. Tovush chiqaruvchi jismga quvvat butun vaqt mobaynida yetkazib berilgandagina, tebranishlar doimiy amplitudaga ega va o‘zgarmas bo‘lib, doimiy davom etadi<sup>1</sup> (to‘xtovsiz tebranuvchi tizim). Masalan: "torli kamonli cholg‘ular, barcha puflama cholg‘u asboblari, insonning nutq-ovoz apparati va boshqalar ..."<sup>2</sup>.

Skripkada tovush hosil qilish jarayonini ko‘rib chiqqanimizda, biz yuqorida aytib o‘tilganidek, to‘xtovsiz tebranuvchi tizim misolini ko‘ramiz. A.Rojdestvenskiyning kuzatishiga ko‘ra, tovush hosil bo‘lish jarayoni quyidagicha kechadi: kanifol bilan ishqalangan kamon tuki tor bo‘ylab harakatlanayotganda unga yopishib qoladi va uni muvozanat holatidan bir yo‘nalishda, kamonning pastga yoki yuqoriga harakatiga qarab uzoqlashtira boshlaydi. Torning elastik kuchi tor va kamon sochlari orasidagi yopishish kuchidan kattaroq bo‘lgunga qadar harakatlantiriladi, tor kamon sochlariidan uilib, siljiy boshlaydi va o‘zining dastlabki holatiga qaytishga harakat qiladi<sup>3</sup>. "Keyin kamon sochlari yana torni ushlaydi, ma’lum bir vaqtda tor yana sochlardan uzeladi va hokazo. Natijada tor o‘zining tebranish davriga mos keladigan ko‘ndalang

tebranishlarni boshdan kechiradi va ma'lum balandlikdagi tovush hosil qilib, jaranglay boshlaydi”<sup>4,6</sup>.

Torli cholg'ularda kamon bilan tovush hosil qilish jarayonini kuzatib, uni mizroblı cholg'ulardagi tovush hosil qilish jarayoni bilan solishtirganimizda (mizrob bilan tremoloni ijro qilganimizda, torning tebranishlari bir xil tez-tez pastga va yuqoriga zarbalar bilan quvvatlanadi), biz mohiyatan o‘z-o‘zidan tebranishga, torning quvvat yo‘qotilishini to‘ldirish printsipi bilan erishiladi degan xulosaga kelamiz. Yagona farq shundaki, mizrob bilan ishslash kattaroq miqyosda bo‘lib, kamon bilan ishslashga nisbatan unchalik mukammal emas, kamonda ko‘proq noziklik va shunga mos ravishda ohangdorlik mavjud.

Shunday qilib, mizroblı cholg'ularda tremolo - bu tovushni kerakli vaqtgacha uzaytirish usuli. Ushbu usul tufayli, biz bir tomondan uzlusiz tovushning har xil davomiyligiga, ikkinchi tomondan, tovushlarni bir-biriga bog‘lagan holda ifodali ijro taassurotini yaratishga erishamiz.

Tremolo – ijrochilik amaliyotida, ayniqsa kantilena xarakterli asarlardagi eng keng tarqalgan usullardan biridir. U o‘zlashtirishda ma'lum bir qiyinchilik tug‘diradi, tremoloni ijro qilish usuli uchun asos bo‘lgan mizrob bilan ikki tomonlama pastga-yuqoriga zarbalarни yetarlicha o‘zlashtirganingizdan so‘ng tremoloni o‘rganishni tavsiya qilamiz. Biroq, bu tremolo usulini o‘rganish cholg‘u chalishni o‘rganishning keyingi bosqichida boshlanishi kerak degani emas. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar mizrob bilan torni pastga va yuqoriga urish ikki tomonlama zARBALARNI nisbatan tez o‘zlashtiradilar. Muhimi cholg‘uda tovush hosil qilishni uslubiy jihatdan to‘g‘ri o‘rgatishdir. Yaxshi ohangdor tremologa faqat qo‘lning torni tebrantirish harakatlari tez-tez, bir xil bo‘lib, torga mizrob bilan urilgan zARBALAR bir xil kuchga ega bo‘lganda erishish mumkin. Tayanch nuqtalarga suyanmagan holda, o‘ng qo‘l kaftining harakatlari torga bog‘lanish hissi bilan erkin bo‘lishi lozim. Mizrob bilan

<sup>6</sup> Музыкальная акустика. N. A. Garbuzov M., 1954, 37 bet.

<sup>2</sup> Shu joyda, 38 bet.


<sup>3</sup> Shu joyda, 90-91 bet.

<sup>4</sup> Shu joyda, 91 bet.

qo‘lning tebranish harakatlari kengligi taxminan torlar orasidagi masofaga teng. O‘ng qo‘l tebranish harakatlarining tezligi torning tebranishlari bilan ma’lum darajada mos kelishi va uning tebranish holatini qo‘llab turishi kerak. Ijro qilishning ifodaviyiligi bilan bog‘liq bo‘lib, u juda tez-tez va ayni paytda juda ham kam bo‘lmasligi kerak. Har bir torda o‘ng qo‘l tebranish harakatlarining tezligi bir xil emas: kattaroq qalinlikdagi torlarda - kichikroq qalinlikdagi torlarga qaraganda biroz sekinroq bo‘ladi. Agarda tremolo texnologiyasi usulini batafsil ko‘rib chiqsak, ma’lum bo‘lishicha, o‘ng qo‘l tebranish harakatlarining tezligi hatto bitta torda ijro qilganda ham bir xil emas ekan. Shunday qilib, bitta torda kantilena kuyini ijro etishda ifodaviylikni oshirish uchun o‘ng qo‘l tebranish harakatlarining tezligi ijro etuvchi talablariga (dinamika, lad tortishishi, avj nuqtasiga qarab harakatlanish, tovushning registri va boshqalar) qarab qayta-qayta o‘zgaradi. Kerakli tebranish tezligi ijrochi tomonidan eshitish idroki orqali aniqlanadi va tartibga solinadi, ijro etilayotgan asarning xarakteriga mos keladigan yuqori sifatli, uzlusiz va ohangdor ovozga erishiladi. Tremolo texnikasi usulni o‘zlashtirish musiqachidan sabr, e’tibor va tizimli ishlashni talab qiladi.

Tremolaning asosiy turi – kaft bilan ijro qilinadigan tremolo (kaftning harakatli jarayoni). Kaftning harakati ijrochiga cholg‘uda tovush chiqarishni yanada rang-barang tarzda bajarishga imkon beradi. Agar katta hajmdagi qattiq tovushga erishish zarur bo‘lsa, bilakni harakat jarayoniga kiritish kerak. Bularning barchasi asarning badiiy tomoni va ijro qilish vazifalariga bog‘liq.

Tremolo ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha dastlabki mashqlar mizrob bilan torga ikki tomonlama (almashinadigan) zarbalarni urishni o‘z ichiga oladi. Ular uzlusiz, birin-ketin, dastlab o‘rtacha tempda, so‘ngra tezlashtirilgan holda bajariladi; shu bilan birga, kaftning tebranish harakatlari amplitudasi (kengligi) torning uzlusiz, bir xil tovushga erishilguniga qadar qisqarib boradi. Shundan so‘ng, o‘ng qo‘l kaftining erkin harakatlarini doimiy ravishda nazorat qilgan holda o‘rtacha sur’atga qaytish kerak. O‘ng qo‘l erkin, yumshoq, egiluvchan va shu bilan birga yig‘ilgan (to‘plangan) bo‘lishi kerak. Dastlabki mashqlarni bajarish uchun qulayroq bo‘lgan birinchi eng tashqi ochiq torda bajarishni tavsiya qilamiz. Rubob prima cholg‘usi bundan mustasno bo‘lib, mashqlar birinchi navbatda ikkinchi torda bajarilishi kerak, chunki u birinchi torga qaraganda yumshoq va kamroq taranglikka ega.



O‘qituvchilar e’tiborini shunga qaratamanki, ya’ni, ochiq torga mizrob bilan urish tezligi (chastotasi) kichik ritmik cho‘zimlar (o‘n oltitaik, o‘ttiz ikkitalik va boshqalar) bilan bog‘liq bo‘lmasligi kerak. Tremolo texnikasining mohiyatini jismoniy hodisa sifatida chuqur o‘rganmasdan turib, ba’zi mualliflar o‘z asarlarida kichik ritmik cho‘zimlarga asoslangan ushbu texnikani amalda o‘zlashtirish uslublarini taklif qilishadi. Tremoloni ijro qilishni o‘rganishda turli xil amaliy usullar o‘z o‘rnini topgan. A. Pilshchikov shunday yozadi: “Dastlabki tremolo mashqlarini ochiq torlarda, butun notalarni o‘n oltitalik notalarga bo‘lib, bajarish kerak”<sup>1</sup>.

7

<sup>1</sup> A. Pilshikov – Школа игры на трехструнной басовой домре. М. 1959 г. 25 bet.

<sup>2</sup> G. Mixaylov – Самоучитель игры на мандолине и четырехструнной домре. М. 1958 г.

G. Mixaylov "ritmik tremolo" deb atalmish uslubini taklif qiladi<sup>2</sup>.

N. M. Sviridov o‘zining “Domra chalishni o‘rgatish metodikasi asoslari” nomli juda qimmatli va mazmunli darsligida bunday usulga qarshi chiqadi va boshlovchi cholg‘u ijrochilarga erkin, “tartibga solinmagan” tremolo bilan o‘qitishni tavsiya qiladi va bu amaliyotda o‘z tasdig‘ini topgan<sup>3</sup>.<sup>8</sup>

Tremolo usulini mashq qilishda mizrob ishchi qismining torga nisbatan holati katta ahamiyatga ega. Torning davomli ohangdorligiga erishish uchun talaba “mizrob bilan torni urib”, oddiygina mashqlarni bajarishi kerak, deb hisoblayman. Qolaversa, yuqorida qo‘llanilgan “mizrob bilan urish” tushunchasi ham juda taxminiy bo‘lib, umuman to‘g‘ri emas, ayniqsa tremoloni bajarishda. Afsuski, o‘ng qo‘l kaftimizni mizrob bilan torga yo‘naltirayotganimizda, mizrobnинг ishchi qismi bilan torga tegib (sirpantirib) o‘tish o‘rniga, torni ilib chalishlarini biz amalda ko‘p uchratamiz. Demak, o‘ng qo‘l kaftimizni pastga va yuqoriga harakatlantirganimizda mizrob ishchi qismning yemirilgan qirralari bilan torga tegishi (sirpanishi), bu esa tarang tortilgan torning mizrobdan erkin siljishini va o‘ng qo‘l kafti tebranish harakatlarining erkinligini ta’minlaydi. Talaba buni tushunishi va ongli ravishda mashq qilishi juda ham zarur, aks holda tremolo usulini o‘zlashtirishi juda ham qiyin kechadi.



Dastlab, tremoloni o‘rtacha kuchli ovoz bilan ijro qilish kerak, bu o‘ng qo‘l kaftidagi juda ko‘p kuchlanishdan saqlaydi va shu bilan birga haddan tashqari taranglik


<sup>8</sup> Н. Свиридов – Основы методики обучения игре на домре. Л., 1968 г.

(kaftning qotib qolishi) ehtimolini yo‘q qiladi. Dastlabki mashqlarni qisqa tanaffuslar bilan almashtirib turish kerak va shu bilan birga men o‘ng qo‘l kaftini bo‘shashtirishni tavsiya qilgan bo‘lar edim.

Keyingi mashq - oldingisini takrorlash - faqat har bir tovushning uzunligi bilan tartibga solinadi. Ushbu misolda siz bir vaqtning o‘zida torga mizrob bilan tez-tez o‘zgaruvchan zARBalar qilgan holda, butun notani sekin sur’atda bir xil sanashingiz kerak, butun notadagi zARBalar soni haqida o‘ylamasdan, torning uzliksiz ovozini qulq bilan eshitib, o‘ng qo‘l kaftining erkin harakatini his qilib, kuzatib borishingiz kerak.:

Har ikkala mashq navbatma-navbat va boshqa ochiq torlarda ham bajarilishi kerak. Torda mizrob bilan ishlashni to‘xtatishda (mizrobnı uzish) juda ham ehtiyot bo‘lish kerak: oxirgi harakat ijroning davom etishiga yoki tugashiga qarab yuqoriga yoki pastga uziladi. Mizrobnı uzish vaqtiga alohida e’tibor berish kerak. Ko‘p hollarda o‘zbek xalq mizroblı cholg‘u sozandalari tremolo ijrosini mizrob bilan urg‘u berib tugatishadi (bu xalq kuylarining ijob uslubidan yoki mashg‘ulot vaqtidagi kamchiliklardan kelib chiqadi), bu esa professional ovozshunoslikka ziddir.

Mizrobnı tordan uzish texnikasi: uzishdan oldingi kaftning so‘nggi tebranish harakatlari oldingi barcha harakatlar kabi bir xil - faqat pastga yoki yuqoriga cho‘zilganroq bo‘lishi kerak.,



Agar dastlabki mashqlar yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lsa, keyingi mashg‘ulotlarga o‘tishimiz kerak:


- a) o‘rtacha tempda bir torda (dastlab birinchisida) turli balandlik va cho‘zimlikdagi tovushlar bilan mashqlar.

Har bir tovushning tremolosi albatta mizrob bilan yuqoridan pastga boshlanishi va keyingi tovushga qo‘lni tayyorlash uchun mizrobnii pastdan yuqoriga uzish bilan yakunlanishi kerak;

- b) turli balandlik va cho‘zimlikdagi tovushlar bilan bir tordan ikkinchisiga o‘tishni o‘z ichiga olgan mashqlar;
- c) bir torda, hamda qo‘shni torga o‘tish bilan bog‘liq “*legato*” (bog‘lash) bo‘yicha mashqlar.

Tremolo texnikasini o‘zlashtirgandan so‘ng, bir torda “*legato*” tovushlarini ijro etish unchalik qiyinlik tug‘dirmaydi. Ohangni bir tordan yaqinrog‘iga o‘zgartirganda “*legato*”ni ijro etish ancha qiyinroq. Bunday vaziyatda talabalar tordan-torga o‘tish texnologiyasini tushunishlari va amalda o‘zlashtirishlari kerak. “*Legato*” tremolosini bir tordan ikkinchisiga o‘tkazishda siz yetarlicha tez, o‘tish yo‘nalishi bo‘yicha amplitudani oshirib, tremoloni davom ettirgan holda kaftingizni keyingi qatorga o‘tkazishingiz kerak.

Torlar (simlar):



O‘tishning mahorati ham shundaki, ya’ni, o‘tish vaqtি tinglovchiga sezilmasligi va shu bilan birga bir torda kuyni chalinayotgandek taassurot yaratishdadir.

Tremolo mashqlarini o‘rganishni oddiy “*kantilena*” asarlarni (parchalar) ijro qilish bilan birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bular, masalan: S. Jalil - “Qalbimda”, M. Ashrafiy - “So‘zsiz qo‘shiq”, rus xalq kuylari “Tik qirg‘oqlar orasida”, “Volga daryosi bo‘ylab pastga”, N. Rimskiy-Korsakov - “Oqqush” bo‘lishi mumkin, va

boshqalar. Maxsus sinf o‘qituvchisi mashqlar va musiqiy asarlarni diqqat bilan ko‘rib chiqishi va tanlashi kerak. O‘qituvchi shuni hisobga olishi kerakki, barcha talabalar ham ushbu usulni bir xil darajada tez o‘zlashtirmaydilar, bu bilan har birining individualligi va harakat jarayonlarining erkinligiga moyilligi ko‘rinadi.

Tremolo usulini mukammal egallash musiqachining yuqori ijrochilik mahoratining ko‘rsatkichidir, shuning uchun texnik tayyorgarlik bilan bir qatorda ushbu usulni mashg‘ulotlarning barcha bosqichlarida muntazam ravishda takomillashtirish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. F. N. Vasilyev - O‘zbek xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti va ijrochilik. G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot. Toshkent 1987 y.
2. A. Pilshikov – Школа игры на трехструнной басовой домре. М. 1959 г.
3. G. Mixaylov – Самоучитель игры на мандолине и четырехструнной домре. М. 1958 г.
4. N. Sviridov – Основы методики обучения игре на домре. Л., 1968 г.
5. Музыкальная акустика. N. A. Garbuzov M., 1954 yil.